

IBN SINO ILMIY MEROSINING JAHON SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI

*Utayeva Feruza Xolmamatovna
BuxDU, t.f.f.d.(PhD),
Qurbanova Dilnora Nuriddin qizi
talaba*

Buxoro jahonga mashhur bo'lган ko'plab insonlarga beshik bo'lган. O'rta asrlar davri sharoitida Vatanimiz sharafini o'zining beqiyos dunyoviy asarlarida ulug'lagan Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z davrining yetuk allomasi, ilm fidoyisi sifatida yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy-madaniy va diniy qadriyatlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Ibn Sino asarlari umumiylar sonining 450 dan oshishi ham bunga dalil. Alloma nomini dunyoga tanitgan omil, bu uning tibbiyot sohasidagi mislsiz kashfiyotidir.

Sharqni butun dunyoga mashhur qilgan Abu Ali ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog'ida 980 yilda amaldor oilasida tug'ilgan. 5 yoshida oilasi bilan Somoniylar davlati poytaxt markazi Buxoroga kuchib keladi.

Ibn Sino istedodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lg'anligidan o'z davrida ma'lum bo'lган ilmlarni tezda egallay boshlagan. Sharq mutafakkirlarning asarlarini bilan bir qatorda, qadimgi yunon ilmiy, falsafiy merosini qunt bilan o'rgandi.

Ibn Sino uchun hayotida kitoblar olamiga kirishi uchun o'zining tabobat sirlaridagi kuchli bilimi sabab bo'ldi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansur og'ir dardga chalinganda davolagani uchun buning evaziga mukofat tariqasida yosh olimga saroy kutubxonasiga kirib ishlashga ruxsat berildi. Kutubxona O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxona edi. Xorazmga ketgunga qadar saroy kutubxonasida o'zining ilmlarini chuqurlashtirdi. Ibn Sino bu haqda shunday yozib qoldirgan: "Shunday kitoblarni ko'rdimki ko'pchilik hatto ularning nomini ham bilmaydi. Men bunaqa kitoblarni avval eshitmaganman. Men o'sha kitoblarni o'qidim va o'zim uchun ko'p foyda oldim, har bir olimning ilm fandagi o'rnini angladim"- deb o'z asarlarida yozib qoldirgan.

Kitoblardan o'qib o'rganganlarini o'z ilmlarida shakllantirgan. Uning Aristotel ta'lumoti xususida Beruniy bilan va o'zining ozarbayjonlik shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Farobiy asarlarini qunt bilan o'qidi. Farobiy boshlab bergan ilmiy nazariyalarni yanada taraqqiy ettirishga harakat qildi. Qoraxoniyalar hukmronligi davrida Buxorodan Xorazmga ketishga majbur bo'ldi. Urganchda taniqli olimlarning ilmiy davralariga borib qo'shildi. U yerda Beruniy bilan ilmiy muloqotlar olib bordi. Vaziyat taqozosi bilan Beruniy G'aznaga, ibn Sino Jurjonga ketdi. "Tib qonun"larining dastlabiki qismini yozdi.

1014 yilda Ray shahriga boradi va o'zining tabiblik mahorati to'fayli sayyidlarning hurmat e'tiboriga sazovor bo'ladi. G'aznaviylarning Rayga hujumini eshitgan ibn Sino Hamadonga ketadi. Hamadonda saroy tabibi va so'ngra vazirlik mansabiga ko'tarildi.

Shu yerda "Tib qonunlari"ni yozib to'gatgan. Olim bir nech yil darbadarlikda yurishiga qaramasdan doim ilm bilan shug'ullanishdan to'xtamadi.

U "Donishnama" (Ilmlar kitobini) yozdi. Bu kitobda: Insonning ulug'ligi aql idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligi, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerakligi aytilgan. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart, shundagina ularning noo'rin hatti harakatlarga berilishning oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorlangan tayyorgarlikka ega bo'lgan ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak, shundagina bolalarimiz tog'ri tarbiya oladi degan fikrlarni bildirib o'tgan.

"Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlari mavjud bo'lib unda oila va ayollar masalalariga e'tibor qaratilgan.

Alloma Abu Ali Ibn Sino "Tadbir-al manozil" asarida "harakatdagi tanaga davo kerak emas" deb aytgan¹. Ta'lim va tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondoshgan. Allomaning bola tarbiyalash va o'qitish haqida ko'p fikrlari o'zining

¹ Umarov, B. B. (2022). Science, education and culture during the rule of the Somanians. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.

chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratda qoldiradi. “Kimga qanday pandu nasihat qilsang unga avvalo o’zing amal qil“ – deydi.

Ibn Sino komil inson tarbiyasida o’qituvchining roliga katta e’tibor qaratgan. O’qituvchi rostgo’y, ozoda kiyinadigan, xushmomila bo’lishi zarurligini ukdiradi.

Ibn Sinoning “Hikmat buloqlari” asarida ta’kidlanishicha, axloq-odob fani aslida odamlarning baxt-saodatli bo’lishini ta’minlovchi yo’l yo’riqlarni aniq ravshan ko’rsatib beruvchi fandir deb e’tirof etilgan². O’qituvchilarga bolalarni tarbiyalashda quydagi usullardan foydalanishni ilgari surgan: nasihat tanbeh berish, amru-farmon, majburiyat qo’yishdir. Ta’lim, tarbiya berishda ustozni ulug’lab shunday yozadi: Uztozdan olgan pandu nasihatga qulq solmay behuda yo’llarda yurgan farzand o’zini o’zi rasvo qiladi deb nasihat qiladi. Insonning kamol topishiga ta’sir etadigan omillardan biri uning bilim olishi deb tushuntirgan. Davlat tarixda ilm - fan bajaradigan xizmat ustun turishini alloma o’z asarlarida ta’kidlab o’tgan.

Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frengis Bekon va boshqa ko’plab olimlar avlodi uning asarlarini o’qib, hayratga tushganlar. Manbalarida qayd etilishicha, Ibn Sino voyaga yetib uylanish vaqtisi-soati kelibdi. Qizlardan hech biri unga maql bo’lmabdi. Qo’shni qishloqda bir shakkok tili zaxar, qaysar qiz bor ekan. Shuni eshitib qolib, uylansam shunga uylanaman,-debdi. Ota-onasi u qizga bas kela olmaysan, seni qiynab qo’yadi deyishiga qaramay shu qizni olaman deb turib olibdi. Noiloj qizni Ibn Sinoga nikohlabdilar. Oradan unchalik vaqt utmay, qiz hamma ko’rsa havas qilguday odobli, shirinso’z uy bekasiga aylanibdi. Qizning ota- onasi ham qizlarining bunchalik o’zgarishiga Ibn Sinoning kaltaklari-y do’q-po’pisalari yoki “joduli kitobi” da yozilgan zahar tilni o’zgartiradigan dori sabab bo’lgan bo’lsa kerak deb, o’ylashib, qizidan so’rashganda, u: “Shirin tili va yaxshi muomalasi bilan meni o’zgartirdi” – deb javob bergen ekan.

Zamondoshlari ibn Sinoni “Shayx ar-rais” (donishmandlar sardori, allomalar boshlig’i), ”Sharaf al- mulk” (o’lka, mamlakatning obro’si, sharafi), “hujjat ak-haqq” (rostlikka dalil), “Hakim al-vazir” (donishmand, tadbirkor vazir) deb

² Nosirov N. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari // Falsafa va huquq 2008 y.-№1-B 40-41

ataganlar. Jahon tarixi fanida qomusiy olim. Olimning asarlari arab va fors tillarida yozilgan. Falsafa va tibga oid kitoblari jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilingan.

Jahonda ibn Sino merosiga hurmat va e'tibor katta. Yevropada olimning asarlari 12 asrda lotin tiliga tarjima qilinib universitetlarda o'qitila boshlagan. Yevropaning mashhur olimlari Jordono Bruno, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Dante va boshqalar o'z ijodlarida foydalanadilar va ibn Sino nomini zo'r ho'rmat bilan tilga oladilar.

Yevropada Ye. Bishmann, X. Korbin, Rossiyalik Ye. Bertels, A.Ya. Borisov, Tojikistonda T. Mardonov, N. Raxmatullayev va boshqa olimlar ibn Sinoni ilmiy ijodlarini boyitib bordilar.

Italiyalik mashhur olim, matematik va shifokor Djiralamo Kardino (1501-1576) ibn Sino haqida shunday fikrni bildirgan: Mening hamma g'oyalarim ibn Sinoga taalluqli³.

AQShda Kanzas-Siti shahridagi tibbiyot kitoblari kutubxonasida ibn Sinoning 5 jılddan iborat kitobining XV asrda fransuz tilida bosilgan nusxasi bor. Bu kitob oyna tagiga qo'yib ko'z qorachig'dek asrab qo'yilgan.

Shved botanigi Karl Linney (1707-1778) doimo yashil bo'lib turuvch bir tropik daraxtni "Avitsinnia" deb atagan. Belgiyaning Korteyk shahrida 2000 - yil ibn Sino haykali o'rnatildi. Jahonda ibn Sino asarlari o'zgacha ahamiyatga ega. Ibn Sino asarlari dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan.

Mamlakatimizda kitobning insonlarni bilim orqali ongli qilishidagi, tarbiyashladagi, ilm o'rgatishdagi xizmatiga isbot berib, kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql- idrokning, ilmu-donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiysidir deb baholagan holda olib borilgan besh tashabbusning to'rtinchi tashabbusida kitobxonlikni to'g'ri tadbiq qilish va yoshlarni ma'naviyatini yanada oshirishda kitob o'qishning yuksak ahamiyatiga e'tibor oshirildi. Shu o'rinda aytish kerakki: ibn Sino saroy kutubxonasida kechay-kunduz tinimsiz o'qib bilim darajasini oshirdi, va kitobga bo'lган mehri uni jahonga mashhur olim bo'lib

³ Sadriddin Ayniy Tanlangan ilmiy asarlar. T. Fan, 1978,-B 35-36

yetishishiga to'rtki bo'ldi. Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Jahon olimlari ibn Sino asarlarini ko'pdan beri turli tillarda tarjima qilganlar va ilmiy ishlar olib borganlar. Hozirda jahonning barcha yirik tillarida ibn Sino haqida asarlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov, B. B. (2022). Science, education and culture during the rule of the Somanians. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
2. Sadreddin Ayniy Tanlangan ilmiy asarlar. T. Fan, 1978,-B 35-36
3. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигига ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
4. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). Бухоро амирликда оила, никоҳ ва мерос хуқуқининг амалда қўлланиши. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
5. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNIY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg'onadavlat universiteti*, (1), 70-70.
6. Temirov, F. Of the journalistic work of Sadreddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. *Irish Interdisciplinary of Science & Research (IIJSR) Vol*, 6, 12-17.
7. Темиров, Ф. У. (2023). Жизнь И Научно-Творческая Деятельность Садриддина Айни В Трудах Его Современников. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(2), 128-134.
8. Темиров, Ф. У. (2022). Мустақил ўзбекистонда инсон хуқуқлари ва қадрини улуғлаш–энг олий немат. *Academic research in educational sciences*, (1), 184-188.
9. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ–ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
10. Rajabov, O. (2021). "Тарихи Муллозода" асари–Бухоро муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари тарихи бўйича муҳим манба. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 8(8).
11. Rajabov, O. (2021). Chor Bakr tarixiy me'moriy majmuasi xususida. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 8(8).
12. Rajabov, O. I. (2022). History of fortress of Makhmud Torobi. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 50-54.
13. Rajabov, O. I. (2021). Buxorodagi ayrim muqaddas qadamjo-qal'alar xususida. *Scientific progress*, 1(6), 1162-1168.
14. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
15. Болтаев, А. X. (2018). Бухоро шаҳри 11 дарвозасининг тарихи ва тақдири (ўлкашунос ТФ Гелах тадқиқотларида). Тюркоязычные страны. Республиканский научно-методический и познавательный журнал. *Алмати*, 2, 6-8.
16. Болтаев, А. X. (2019). Исследование С. Юренева в мечети Калян. *Вестник археологии, антропологии и этнографии*, (1 (44)), 45-53.
17. Болтаев, А. X. (2018). Бухоро ўлкашунослиги тарихини ўрганишда СН Юренев ёзишмаларининг ўрни. Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети хабарлари, (1), 5-9.

18. Болтаев, А. Х. (2019). Бухарские коллекционеры. In *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (pp. 142-143).
19. Болтаев, А. (2020). Бухородаги биринчи музей. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 1(1).
20. Naimov, I., & Toshpo‘latova, S. (2023). MARRIAGE CEREMONY OF TAJIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH ANDREYEV “TADJKI DOLINI KHUF”. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
21. Naimov, I. N. (2021). A coverage of the activities of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish. *International Journal on Integrated Education*, 4(5), 36-45.
22. Naimov, I. (2023). AHMAD DONISH ILMIY MEROSIDA ISLOM HUQUQI MASALALARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 71-71.
23. Ismat, N. (2021). “MEYORU-T-TADOYYUN” AS RELIGIOUS AND MORAL SOURCE. *The Light of Islam*, 2021(2), 46-54.
24. Klichev, O. (2020). Scholarships of Emirs of Bukhara. *Oriente moderno*, 100(1), 57-74.
25. Кличев, О. А. (2020). Особенности приема посольств Российской Империи в Бухарском Эмирате во второй половине XIX в. *Россия и мусульманский мир*, (1 (315)), 99-113.
26. Klichev, O. A. (2016). Discourse to the history of political agency in the emirate of Bukhara. *Europaische Fachhochschule*, (8), 14-15.
27. Abdurasulovich, K. O. (2023). ACTIVITY OF EDITORS OF "BUKHORONOMA" NEWSPAPER. *Open Access Repository*, 4(3), 1385-1388.
28. Кличев, О. (2020). БУХОРО АМИРЛИГИ ВА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ЎРТАСИДАГИ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРДА СОВФА АЛМАШИНУВ ТАРТИБЛАРИ. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 71-74.
29. Utaeva, F. K., & Zhumaeva, N. A. (2019). The interpretation of the reign of mangit rulers and their personality in periodical press. *Ўтмишга назар журнали*, 22(2).
30. Utayeva, F. (2021). BUXORO TO’QIMACHILIK SANOATI QURILISHI TARIXINING MATBUOTDA YORITILISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 7(7).
31. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). История строительства и производственная деятельность Бухарского Прядильного-текстильного комбината. *Farg ‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307.
32. Бобожонова, Ф. Х. (2021). БУХОРО МАДРАСАЛАРИ МАЬНАВИЯТ ДУРДОНАСИ. *Scientific progress*, 2(1), 362-366.
33. Бобожонова, Ф. Х. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МАСАЛАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 1024-1028.
34. Bobojonova, F. (2021). Бухоро амирлигидаги янги усул мактабларининг фаолияти. Центр научных публикаций (*buxdu. uz*), 8(8).
35. Beshimov, M. (2022). Abdulvahid Munzim-enlightened poet, state and public figure. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
36. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
37. Beshimov, M. (2023). ISSUES OF AGGRESSION OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE WORKS OF MIRZO SOMI. *Modern Science and Research*, 2(7), 316-321.
38. Beshimov, M. (2021). Mang’itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 7(7).

39. Beshimov, M. (2023). THE HISTORY OF BUKHARA OF THE DOCUMENTS OF THE QUSHBEGI ARCHIVE IMPORTANCE IN LEARNING. *Modern Science and Research*, 2(7), 305-309.
40. SHAROPOV, D. (2022). ПРАВИТЕЛЬ МАНГЫТОВ ЭМИР ХАЙДАР. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 101-104.
41. Ravshanovich, S. D. (2022). CURRENTLY, THE PLACE OF AFGHANISTAN IN THE COMMUNICATION OF CENTRAL AND SOUTH ASIA. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 55-59.
42. Sharopov, D. (2021). ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING “MATLAI SA'DAYN VA MAJMAI BAHRAYN” ASARINING O'RGANILISH TARIXI. *Scientific progress*, 2(1), 358-361.
43. Nosirov, S. (2022). Sadreddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o 'rganuvchi manba sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
44. Sherzod, N. (2023). HISTORIAN SCIENTIST POLAT SOLIYEV IS A RESEARCHER OF THE HISTORY OF BUKHARA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 3(3), 32-38.
45. Sherzod O'ktam o'g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.
46. Qudratov, S. (2021). XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги бозорлар фаолияти. *центр Научных публикаций (buxdu. uz)*, 7(7).
47. BOLTAEV, B. (2022). The trend of creation and development of the museum-laboratory of Bukhara state university. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 69-73.
48. Ахмадалиев, К., & Болтаев, Б. (2024). МАРКАЗИЙ СУФДНИНГ МУДОФАА ИНШООЛАРИ. *Наука и технология в современном мире*, 3(3), 30-31.
49. Элова, Д. (2022). История Появления Автомобилей И Тракторов В Бухаре В Начале Xx Века. *Miasto Przyszlosci*, 29, 357-358.
50. Элова, Д. Д. (2021). БУХАРА: ПРОЦЕСС МОДЕРНИЗАЦИИ В ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ 20 ВЕКА. In *Молодежь, власть, общество: проблемы и перспективы взаимодействия* (pp. 24-27).
51. Umarov, B. B. (2022). Science, education and culture during the rule of the Somanians. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
52. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI (“KITOB AL-MASOLIK VAL MAMALIK” MISOLIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 38(38).
53. Umarov, B. (2023). ABU BAKR NARSHAXIY ASARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI. *Farg'onan davlat universiteti*, (2), 166-166.
54. Umarov B. NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO'JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.